

KATTALAR TA'LIMIDA INNOVATSION PEDAGOGIK TEKNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING O'ZIGA XOS JIHATLARI

Nimatova Moxinur Sobit qizi, Beshimova Muazzam
Toshkent amaliy fanlar universiteti, Gavhar ko'chasi 1 uy, Toshkent 100149, O'zbekiston
nimatovamohinur@gmail.com
+998997691644

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10462977>

Kalit so'zlar: Kattalar ta'limi, innovatsion pedagogik texnologiyalar, innovatsiya,

Annotatsiya: Ushbu maqolada kattalar ta'limida innovatsion pedagogik texnologiyalar va ulardan samarali foydalanish, bosqichma-bosqich foydalanish, pedagogik texnologiyalarning kattalar ta'limi jarayonidagi ahamiyati haqida fikrlar yuritilgan.

KIRISH.

Bugungi zamonaviy ta'lim tizimining asosiy unsurlaridan biri bu, shubhasiz, yangicha, ya'ni innovatsion pedagogik texnologiyalardir. Ushbu pedagogik texnologiyalar orqali dars jarayonlarining olib borilishi yoki tashkil etilishi ayniqsa katta yoshli o'quvchilarni erkin, yangicha fikrlashlariga katta yo'l ochib berish uchun xizmat qiladi. Androgogika- kattalar ta'limi sohasi sifatida ta'limni tashkil etish amaliyotini o'rganadi. Androgogika-kattalar ta'limining samaradorligi ta'limning ehtiyojiga aylanishiga asoslanadi, Androgogikada o'qitish metodlarini tanlash guruhning (yosh/ bosqich rol o'ynamaydi) xususiyatlaridan kelib chiqadi. (kasbiy, shaxsiy jamiyat va jamoaviy ehtiyojlardan). Demak, kattalar ta'limini tashkil etishda pedagogik innovatsion texnologiyalarning o'rni beqiyosdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYASI.

Xorij olimlaridan A.Kapp, M.Sh.Noulz, M.Forner, J.Dyui, E.Lindemann, E.Torndayk, N.Gruntvig, M.Xaydegger, K.Yaspers, J.P.Sartre, Y.N.Dyusher, D.V.Lorens, T.G.Braje, E.Erikson, R.Gould, O.Brim, Markinsney, H.Garner, Donaldson, Vigotskiylarning ilmiy izlanishlarida hamda M.Noulzning "Kattalar ta'limining zamonaviy amaliyoti. Andragogika yoki pedagogika" nomli asarida andragogikaning o'ziga xos xususiyatlari va tamoyillari keltirilgan. Doktor Jon A. Henshke o'zining maqolasida andragogikaning shakllanish bosqichlarini yoritib bergan. tomonidan olib borilgan. Pedagogik malaka oshirish va qayta tayorlash markazlari tinglovchilarini innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitida andragogik yondashuvga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari mavzusiga doir tadqiqotlar MDH olimlari tomonidan ta'lim tizimida innovatsion texnologiyalar va raqamli ta'lim muhitida andragogik yondashuvga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari masalalarining tadqiqi Rossiyalik tadqiqotchilar S.N Gabrov. T.A. Vasilkova, S.I.Zmeyov ilmiy ishlarida yuqoridagilarga qo'shimcha sifatida katta yoshlilar ijtimoiylashuvining o'ziga xosligi, inson hayotining turli bosqichlarida ta'lim olish imkoniyatiga ega bo'lishi, uzluksiz ta'lim olish haqida g'oyalarning asoslanishi hamda anragogikaning mustaqil fan sifatida qabul qilinishi yoritiladi". "S.G.Vershlovskiy o'zining

"Andragogning ish kitobi" asarida andragogikaning shakllanish bosqichlarini yoritib bergan."

Andragogika Katta yoshdagi insonlarning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar hisoblanadi.

1. Yo'nalishni aniqlash
2. Motivatsiya
3. Bilish kerak
4. Tayyorgarlik
5. Tajriba
6. O'z-o'zini boshqarish

Ilm-fan, texnika, texnologiya hamda ishlab chiqarishning bugungi yuksak taraqqiyoti o'z-o'zidan yangi ijtimoiy talablarni kun tartibiga qo'yimoqda. Mazkur ijtimoiy talablar sirasida jamiyat, qolaversa, uning negizida sohalar rivojini harakatga keltiruvchi kuch – malakali kadrlarni tayyorlash, ana shu maqsadga yo'naltirilgan tizimni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega. Malakali kadrlarni tayyorlashga bo'lgan ehtiyoj ishlab chiqarish korxonalari paydo bo'lgan, sanoat sohasi rivojining ilk bosqichlarida yuzaga kelgan bo'lsada, hanuzgacha o'z dolzarbligini yo'qotmay kelmoqda. Buning asosiy sabablari jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotiga bog'liq ravishda yangidan-yangi yo'nalishlar, ixtisosliklarning paydo bo'lishi, ular bo'yicha kadrlar tayyorlash zaruriyatining vujudga kelishi, o'zgaruvchan, tezkor davrda mutaxassislarning kasbiy bilim, malaka va mahoratlarini izchil ravishda oshirib borishga bo'lgan ehtiyojning shakllanishi, shuningdek, mutaxassis sifatida mehnat bozoridagi kuchli raqobatga bardosh bera olishga bo'lgan talabning ortishi sanaladi. Hozirgi davr ta'lim taraqqiyoti yangi yo'nalish – innovatsion pedagogikani maydonga olib chiqdi. "Innovatsion pedagogika" termini va unga xos bo'lgan tadqiqotlar G'arbiy Yevropa va AQShda 60-yillarda paydo bo'ldi. Yangilik kiritishning sotsial-psixologik aspekti amerikalik innovatik E.Rodgers tomonidan ishlab chiqilgan. U yangilik kiritish jarayoni qatnashchilarining toifa(tip)lari tasnifini, uning yangilikka bo'lgan munosabatini, uni idrok qilishga shayligini tadqiq etadi. Pedagogik texnologiya — ta'lim va tarbiya jarayonida zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'lash, texnologik yondashuv asosida ta'lim va tarbiya jarayonining samaradorligini oshirish muammolarini o'rganadi.

MUHOKAMA.

Texnologiya soʻzining lugʻaviy maʼnosiga toʻxtalib oʻtadigan boʻlsak, ushbu soʻz yunonchadan olingan boʻlib, "tehnos" - mahorat, sanʼat "logos" - taʼlimot, fan maʼnolarini anglatadi. Bundan kelib chiqadiki, texnologiya soʻzi boshqa terminlarga qoʻshilib, ana shu sohani rivojlantirish, mahoratini oshirish vazifalarini bajaradi. Umumiy qilib aytganda, texnologiya sifat jihatdan yangi masalalarni yechish uchun taʼlim evolutsiyasi bosqichini tayyorlagan obyektiv jarayondir. Yangi texnologiyalar katta taʼlim imkoniyatlarini ochdi. Roʻy berayotgan sifat oʻzgarishlar shuni koʻrsatadiki, odat boʻlgan tushuntirishda "oʻrgatish" jarayonlari oʻqituvchilarning kasbiy imkoniyatlari chegarasidan tashqari chiqib keta boshladi. Vujudga kelgan yangi texnik, axborot, bosma, eshitish va koʻrgazma vositalari oʻziga xos tarzda yangi metodikalar bilan taʼlim jarayoniga koʻpgina yangiliklar kiritib, uning ajratilmas qismi boʻlib qolmoqda. Biroq, pedagogik texnologik jarayonning oʻziga xosligi, uning anʼanaviy shakllaridan ustuvorligi va hozirgi zamon taʼlimi muammolari real yechish usullari hali toʻla oʻrganilmagan. Bu haqda chet ellik va oʻzbek avtorlari koʻp yozmoqdalar. Lekin barchalari pedagogik texnologiyalar kelajakda ustuvor oʻringa ega boʻlishiga ishonadilar. Hozirda taʼlim texnologiyasi yordamchi vosita boʻlib qolmay balki, oʻquv jarayonining rivojlanishida katta rol oʻynab, uning tashkiliy shakllari, metodlari, mazmunini oʻzgartiradigan yangi sistema deb tushunilmoqda. Bu esa, oʻz navbatida, oʻqituvchi va oʻquvchining pedagogik tafakkuriga oʻz taʼsirini koʻrsatmoqda. Texnologiyani bunday tavsif qilish taʼlim jarayonidagi barcha tuzuvchilar orasidagi uzviy bogʻlanishning muhimligini, pedagog va oʻquvchining oʻzaro hamkorligini koʻrsatadi. Oʻquvchi passiv taʼlim obyektidan faol shaxs taʼlim va tarbiya subyektiga aylanadi va aktiv subyekt sifatida oʻqituvchi bilan bu jarayonda qatnashadi, mustaqil bilim olishga intiladi. Innovatsion usullarda dars oʻtish jarayonini, yaʼni zamonaviy pedagogik texnologiyalarni boshlangʻich taʼlim davridan boshlab tashkillashtirish taʼlim tizimida yuqori samara beradi.

NATIJA.

Kattalar taʼlimida eng muhim jihatlaridan biri bu – muloqotdir. Kattalar orasida muloqotni yuksak darajaga koʻtarish maqsadida asosiy dars mashgʻulotlarini boshlashdan oldin guruhning barcha ishtirokchilari yigʻilganda va ular bir-birini birinchi marta koʻrayotganlarida oʻzaro muloqot oʻrnatishga yordam beradigan usullarni qoʻllash foydalidir. Xatto seminar ishtirokchilari bir-birlari bilan tanish boʻlsalar ham, har doim inson gohida yangi va qiziqarli narsalarni bilib olishi mumkin. Bu bosqichda biz xotirjam va erkin vaziyatda seminar ishtirokchilarini ochiqlikka, ijodkorlikka yoʻnaltirishga, har kimga soʻzlash imkoniyatini berishga harakat qilish seminar mashgʻulotlarining samaradorligini oshiradi. Bu esa keyinchalik guruhning barcha aʼzolarini oʻquv jarayonida faol ishtirok etishlarini taʼminlaydigan omil hisoblanadi. Ishtirokchilarning bir-birlari bilan tanishishlari uchun turli oʻyinlar variantlari mavjud. Taklif etilayotgan usullardan alohida seminarlarda, shuningdek bir nechtasini bitta seminar ham qoʻllash mumkin. Seminarining birinchi mashgʻulotida ishtirokchilar oʻzaro

odatiy salomlashish bilangina tanishadilar. Shu bois kattalarni oʻzaro muloqotlarini faolroq tarzda oʻtkazish maqsadida: - avval siz oʻzingiz haqingizda aytsa boʻladi, deb hisoblaydiganlaringizni soʻzlab bering; - sherigingiz toʻgʻrisida nimalarni bizga aytib bera olasiz, unga savollar berib, munosabatga kirishasiz? Oʻqituvchi shu bilan birga mashgʻulotda ishtirok etayotganlar bilan yaqinroq muloqotni hosil qiladi. Dastlab oʻqituvchi seminar ishtirokchilari orasidan bir kishini tanlab: Siz oʻz haqingizda soʻzlab bering deb murojat qiladi. Bu davra boʻylab oʻzini tanishtirish, uni qiziqarliroq oʻtkazish uchun har bir ishtirokchiga oʻzini tanishtirganidan keyin unga kutilmagan savol beriladi, masalan: "Nima uchun sizga shunday ism berilgan?" yoki "Sizning oʻtgan yildagi eng katta yutugʻingiz nimadan iborat boʻldi?" yoki "Teatr yoki kinoda qanday rolni uynashni xohlaysiz?" Odatda, bunday savollar ishtirokchilarni bir-biriga nisbatan qiziqish uygʻotadi va "Dilidagilarni ochishga yordam beradi, Eng muhimi - soʻzlovchiga halaqit bermaslik, diqqat - eʼtibor bilan tinglash lozim, chunki koʻpchilik ishtirokchilar guruh oldida birinchi marta soʻzga kirishadilar. Guruh ishtirokchilari bilan tanishuv tugaganidan keyin, darsdagi faollikni taʼminlash maqsadida endi ikkinchi bosqichga oʻtiladi. Bunda ishtirokchilar haqida koʻproq maʼlumotlar olish oʻzaro muloqotni yengillashtiradi. Shuningdek ishtirokchilarni mashgʻulotga boʻlgan eʼtiborini kuchayishini taʼminlaydi. Shunday qilib, dars mashgʻulotlari jarayonida turli xil treninglardan ham foydalanish kattalar taʼlimida samarali hisoblanadi. Undan tashqari kattalar taʼlimida oʻyin texnologiyasidan ham foydalanish judayam yaxshi samara beradi. Quyidagi oʻyinlarni koʻrib chiqamiz:

Kichik guruhlariga boʻlinish uchun tanla. Ishtirokchilarni 4 ta kichik guruhga boʻlish uchun 4 koʻngilli taklif etiladi, agar 5 ta guruh boʻlsa, 5 nafar koʻngilli. Boshlovchi (moderator) koʻngillilarga savol beradi: "Safar (sayoxat, sayr)ga chiqsangiz, oʻzingiz bilan kimlarni olib ketardingiz?" Koʻngillilar oʻz komandalarga bittadan ishtirokchini tanlaydilar. Komandaga tanlangan kishilarga quyidagi savol beriladi: "Ryukzakni koʻtarishni kimga ishonib topshirardingiz?" Komandaga yana bir kishidan tanlab olinadi. Qolgan savollarni boshlovchining oʻzi tuzishi yoki quyidagilardan foydalanishi mumkin: "Olmangizni kim bilan boʻlishardingiz?", "Siringizni kimga ishonardingiz?" Agar komandalarga tanlab olinmagan bir nechta kishi qolgan boʻlsa, ularga ixtiyoriy guruhga qoʻshilishni taklif qilish mumkin.

Axmedovlar oilasi. Ishtirokchilar soniga qarab oldindan oilalar va ularning aʼzolari nomlari yozilgan kartochkalar tayyorlanadi. Agar ishtirokchilar soni 30 nafar boʻlsa va ularni 5 ta kichik guruhga ajratmoqchi boʻlsak bizga har birida 6 nafar aʼzosi bor 5 ta oila zarur boʻladi. Agar ishtirokchilar teng boʻlinmasa, qaysidir oilada aʼzolar soni kamroq boʻlishi mumkin. Oilalarni quyidagicha nomlash mumkin: Axmad, Alisher, Akrom, Abdulla, Botir, Baxrom va h.z. Aʼzolar: buva, buvi, ota, qiz, it, mushuk, sichqon va h.z. Bizning kartochkalarimiz quyidagi koʻrinishda boʻladi: "Axmad buva", "Odina buvi", "Alisher buva" va h.k. Ishtirokchilar bittadan kartochka oladilar va moderatoming signali boʻyicha "Oʻz" oilalarini topib, hammalari bitta stulga bir-

birlarining tizzalariga o'tirishlari kerak: buva, buvi, ota, qiz, it, mushuk va sichqon. Vazifa - buni iloji boricha tez bajarish lozim. O'yinning afzalligi shundaki, mazkur rollarni seminarining oxirigacha saqlab qolish va zarur hollarda osongina boshqa guruhlar, masalan, mushuklar guruhi, sichqonlar guruhi va h.k. hosil qilish mumkin.

O'tirib charchaganlar uchun xarakatli mashqlar shamol esyapti. Bu - seminarlarda eng ommalashgan o'yinlardan biri. Ishtirokchilar stullarda o'tiradilar. Moderator komandasi bilan shamol u aytgan kishilarni "Uchirib ketishi"ni, shunda ishtirokchilar bir-birlari bilan o'rin almashishlari lozimligini tushuntiradi. Uning o'ziga stul qo'yilmagan. Quyidagicha komandalar berilishi mumkin: "Shamol esyapti, oq kiyim kiyganlarni uchirib ketyapti yoki "Shamol esyapti va hamma shim kiyganlarni uchirib ketyapti...", yoki "Shamol esyapti va qo'shiq aytishni yoqtiradiganlarni uchirib ketyapti..." va h.k. Ishtirokchilar o'rin almashgunlaricha moderator ham bo'sh stullardan biriga o'tirib oladi. Stul yetmagan ishtirokchi boshlovchilik qiladi va "Shamolning esishi" kimlarni olib ketishini aytadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytganda kattalar ta'limini tashkil qilishda ta'lim sifati va samaradorligini oshirish maqsadida pedagogik texnologiyalarni, zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash tavsiya etiladi. Zamonaviy metodlar va ta'lim samaradorligini oshirishga yordam beruvchi texnologik treninglar kattalarda mantiqiy, aqliy, ijodiy, tanqidiy, mustaqil fikrlashni shakllantirish bilan birga ularning qobiliyatlarini rivojlantirish, raqobatbardosh yetuk mutaxassis bo'lish hamda ijobiy kasbiy fazilatlarini tarbiyalashga yordam beradi.

Shunday qilib, kattalarni o'qitish jarayoni tashkil etishda quyidagilarni xulosa o'rinda ma'lum qilish mumkin:

- Turli sohalarda va aholining turli qatlamlarida ta'lim olishga ehtiyoj katta;
- Ta'lim olishni xohlovchilarni deyarli yarmi o'qish uchun kam bo'lsa ham, pul to'lashga tayyor;
- Turli sohalarda qisqa muddatli kurslar, jumladan, malaka oshirish kurslariga talab katta;
- Jamiyatda o'qishga nisbatan tabaqalanish harakati kuzatilmoqda;
- Kattalarni, birinchi navbatda, sifatli mazmun va uslub qiziqtiradi, aholining himoyalanmagan toifalari uchun esa guruhdagi muhit ham muhim ahamiyatga ega;
- O'qishni istamaslik eng avvalo, insonning shaxsiy va ijtimoiy maqsadlari bilan qaraganda o'qish kech degan e'tiqod va do'stlari, qo'shnilari, qarindoshlari ko'zi o'ngida kulgiga qolishdan qo'rqish bilan izohlanadi;
- Insonning butun umri davomida o'z bilimini oshirishi, ko'paytirishi andragogika bilan bog'liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Andragogika // O'.M.Asqarova, M.A. Abdullaeva, M.Boltaeva Namangan2014.
2. Innovatsion ta'lim texnologiyalari / Muslimov N.A., Usmonbekova M. X., Sayfurov D. M., To'rayev A.B. – "Sano standart" nashriyoti, 2015.
3. Mirsoliyeva M.T., Ishmuhammedov R.J O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish // Metodik qo'llanma. – Toshkent: - fan va texnologiya. 2014.